**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi 10-sonli yig‘ilish bayonnomasi**

**1.05.2025 yil** **Denov shahri ,Sh Rashidov ko‘chasi 360**

**Qatnashdilar:**

**Qatnashdilar:**

**1. Z.Suvonov----F.f.d(DSc)o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri**
**2.E.Ortiqov---- Filologiya fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari**
**3.J.Ubaydullayeva-----kafedra o‘qituvchisi**
**4.B.Eshmirzaev----kafedra o‘qituvchisi**
**5.S.Amirqulov----kafedra o‘qituvchisi**
**6. Saidova N ----kafedra o‘qituvchisi**
**7.I.Jo‘rayev----F.f.f.d.(PhD)v/b datsent**
**8.D.Xushvaqtova ----kafedra o‘qituvchisi**
**9. A.Boymirzayev---- kafedra katta o‘qituvchisi.**
**10.R.Mamatmurodov- kafedra katta o‘qituvchisi.**

**Kun tartibi:**

1. **Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi N.S. Nabiyevaning "Navoiyshunoslik" fanida “Saddi Iskandariy dostoni.Doston kompazitsiyasi.” Dostonning tasavvufiy talqini"mavzusida o‘tkazgan ochiq darsi** tahlili.

Yig‘ilishni o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri Z.Suvonov kirish so‘zi bilan ochib, o‘tkazilgan ochiq dars bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirish uchun so‘zni ishtirok etgan o‘qituvchilarga berdi.





**Saidova N** – o‘qituvchi o‘zini tutishi erkin, har bir rejaga to‘xtalib ko‘proq materiallar berdi, mavzuni ravon va tizimli tartibda tushuntirdi. Texnik vositalar va elektron doskadan unumli foydalaniladi. Auditoriya bilan aloqa yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Talabalarga savollar bilan murojaat qilinib, o‘zi to‘ldirdi. Ishlab chiqarish bilan bog‘lab, misollar bilan to‘ldirdi. Internet ma’lumotlaridan kengroq foydalansa dars sifati yanada oshardi. Ushbu mavzuni fanning kurs ishi, amaliy va tajriba mashg‘ulotlariga moslab alohida uslubiy qo‘llanma sifatida chop etsa yaxshi bo‘lardi.



**N.S.Nabiyevaning“Navoiyshunoslik”fanidan“Saddi Iskandariy dostoni.Doston kompazitsiyasi.” mavzusida o‘tkazgan ochiq darsi** OTM talabiga



2.**J.Ubaydullayeva** – oʻqituvchi oʻzini tutishi erkin, har bir rejaga toʻxtalib koʻproq materiallar berdi, mavzuni ravon va tizimli tartibda tushuntirdi.
Auditoriya bilan aloqa yaxshi yoʻlga qoʻyilgan. Dars kundalik yangiliklar bilan bogʻlab oʻtildi. Multimediyadan foydalansa dars sifati yanada oshardi. Nutqini yanada oshirish ustida ishlash kerak deb oʻylayman. Umuman olganda, oʻtilgan ochiq dars yuqori saviyada oʻtkazildi deb hisoblayman va ijobiy baholayman.



**3.Rajabov X** - ochiq dars ilmiy jihatdan asoslangan, namunaviy, ishchi dastur, darslik, qoʻllanmalar, koʻrgazmali qurollar, ma’ruza matni, katta oʻqituvchi shu sohaning yaxshi mutaxassisi va oʻtayotgan fanini juda yaxshi biladi. Oʻqituvchida pedogogik sifat shakllangan. Mavzu tarqatma material sifatida talabalarga tarqatilgan. Oʻqituvchi nutqi ustida yanada koʻproq ishlashini taklif qilib, oʻtilgan ochiq darsni yuqori saviyada va ijobiy deb baholayman.

4 **.Saidova N** – ochiq dars reja boʻyicha oʻtildi. Maxtumquli sheʻrlari chiroyli aytilib tahlil qilindi, izohli tartibda oʻqituvchi tomonidan ma’ruza matnga qaramasdan tushuntirildi. Ma’ruza matnlari talabalarga tarqatilgan. Dars jarayonida yangi pedagogik texnologiya elementlaridan foydalanildi. Talabalar baholandi. Talabalarning konspektiga koʻproq e’tibor qaratsa yanada yaxshi boʻlardi.

5.D.Xushvaqtova – ochiq dars juda yaxshi o‘tkazildi, yuqorida bildirilgan fikrlarga qo‘shilaman. Mavzuga oid lug‘atlar o‘qituvchi tomonidan juda yaxshi yoddan izohlab berildi. Mavzuga oid o‘qitishda texnik vositalardan foydalanildi, ya’ni Axborot texnologiyasi, kompyuterdan yuqori saviyada foydalandi. O‘tilgan ochiq dars mashg‘ulotini namunali deb baholayman.

8.**S.Amirqulov** - ochiq dars oliy o‘quv yurtlari talabi darajasida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilingan holda o‘tkazildi, so‘zga chiqqan o‘qituvchilar fikrlariga qo‘shilaman. Ochiq darsni umumlashtirgan holda namunali deb baholayman.

Shundan so‘ng ochiq dars o‘tgan o‘qituvchi **N.S.Nabiyeva**ga so‘z berildi. Ochiq ma’ruzada qatnashgan professor-o‘qituvchilarga o‘z minnatdorligini bildirdi. O‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni keyingi ishlarida inobatga olishni ta’kidladi.

**Kafedra yig‘ilishi qaror qiladi:**

1. J.Ubaydullayeva va **S.Amirqulovning** ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin, hamda yuqorida so‘zga chiqqan o‘qituvchilar fikrlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. **N.S.Nabiyeva** tomonidan o‘tkazilgan 2 soatlik ochiq darsi OTM talablariga to‘liq javob berishi inobatga olinsin va namunali deb hisoblansin.

**Rais: Z.Suvonov**
**Kotib: I.Jo‘rayev**